



DAVLAT AUDITI BO'YICHA ISTIQBOLLI KADRLAR TAYYORLASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

PRIORITY DIRECTIONS OF TRAINING PROSPECTIVE PERSONNEL FOR STATE AUDIT

¹Meliyev Isroil
Ismoilovich

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori,
iqtisodiyot fanlari doktori. **ORCID:** 0000-0002-0976-7406,
G-mail: melievisroil1981@gmail.com

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur maqolada O'zbekiston oliy ta'lim tizimida davlat auditi sohasida istiqbolli kadrlar tayyorlashning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida fikr yuritilgan bo'lib, unda davlat auditi sohasida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashning dolzarbligi va zarurati, mazkur soha bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar me'yorlari hamda ushbu sohada tadqiqotlar olib borgan iqtisodchi olimlar fikrlarining tahlili, davlat auditi oliy maktabini tashkil etish bo'yicha birinchi navbatda bajariladigan ustuvor vazifalar, "Davlat auditi" ta'lim yo'nalishi bo'yicha kurslar kesimida o'qitiladigan fanlar ro'yxati, "Davlat auditi" ta'lim yo'nalishining o'quv-uslubiy ta'minotini shakllantirish yo'nalishlari, "Davlat auditi" oliy maktabi pedagog xodimlari va kadrlarining salohiyatini oshirish yo'nalishlari hamda tadqiqot natijalari yuzasidan erishilgan xulosalar bayon etilgan.

Eng. - This article discusses the priority areas of training promising personnel in the field of state audit in the higher education system of Uzbekistan, which includes an analysis of the relevance and necessity of training highly educated personnel in the field of state audit, the norms of regulatory legal acts in this field and the opinions of economists who have conducted research in this field, the priority tasks to be performed first in organizing a higher school of state audit, a list of subjects taught in the course of the "State Audit" educational direction, directions for forming the educational and methodological support of the "State Audit" educational direction, directions for increasing the potential of teaching staff and personnel of the "State Audit" Higher School, and conclusions reached on the results of the research.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ davlat auditi, ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklari, budget tashkilotlari, budget mablag'lari, moliyaviy intizom, moliyaviy nazorat, budget nazorati, oliy maktab, malakali kadrlar, kadrlar salohiyati, ichki audit malaka sertifikat, samaradorlik auditi, o'quv reja, o'quv dasturi, mutaxassislik fanlari.

❖ state audit, educational direction and specialties, budget organizations, budget funds, financial discipline, financial control, budget control, higher school, qualified personnel, personnel potential, internal audit qualification certificate, performance audit, curriculum, curriculum, specialty disciplines.

Kirish.

Respublikamizda Davlat rahbarining oqilona siyosati natijasida 2025-yil iqtisodiyotda birinchi marta yalpi ichki mahsulotimiz 145 milliard dollarlik marradan o'tdi. Tariximizda bunday raqamlar hech qachon kuzatilmagan. Tabiiyki, yuqori iqtisodiy o'sish, aholi daromadlarining oshishi va hududlar rivojlanishi yangi reja va maqsadlar deganidir. Galdagi muhim vazifalardan biri budjet mablag'larini maqsadli sarflash, ijro intizomini ta'minlash, qat'iy nazorat o'rnatishdan iborat.

Mazkur maqsadda 2025-yilning 19-dekabr sanasidan mamlakatimizda davlat auditi tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, moliyaviy buzilishlarning oldini olish uchun raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, shuningdek, davlat auditi sohasida malakali kadrlarni tayyorlash maqsadlarida Prezidentimizning "Davlat auditi va moliyaviy nazorati faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-252-son Farmoni kuchga kirdi. Bizningcha, Prezidentning mazkur Farmoni 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi va 2021-yil 27-avgustdagi PF-6300-son "Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlarida belgilangan ustuvor vazifalarning amaliy natijasi hamda uzviy davomi hisoblanadi.

2026-yil 1-yanvardan Hisob palatasi faoliyati har besh yilda bir marta tashqi baholashdan o'tkazilishi belgilandi va mazkur baholash INTOSAI metodologiyasiga muvofiq chet eldagi yuqori audit organlari ishtirokida amalga oshirish amaliyoti joriy etildi. Bunda baholash natijalariga asosan Hisob palatasining o'rta muddatli rivojlanish strategiyasi ishlab chiqilishi belgilandi. Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda O'zbekistonda nafaqat moliyaviy hisobot auditi [1], balki forenzik audit [2],

fuqarolar ishtirokidagi audit [3] va davlat auditi [4] kabi audit shakllari ham tilga olinmoqda.

Shuningdek, mazkur farmonga asosan iqtidorli yoshlarni davlat auditi sohasiga maqsadli yo'naltirish maqsadida 2026-2027-o'quv yilidan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida huquqiy maqomi oliy ta'lim tashkilotining fakultetiga tenglashtirilgan Davlat auditi bo'yicha Oliy maktab tashkil etilishi hamda mazkur maktabga ushbu sohada kadrlar tayyorlash va malaka oshirish vazifasi yuklatilgan. Mazkur Oliy maktabda davlat auditi bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlash vazifasi belgilanmoqda. Xususan, "Davlat auditi" ta'lim yo'nalishining o'quv dasturlarini QS va THE (Times Higher Education) reyting agentliklarining TOP-300 reytingidagi oliy ta'lim tashkilotlari tajribasiga muvofiq ishlab chiqish, ularni O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishgan holda tasdiqlash nazarda tutilmoqda.

Yuqoridagilar bilan birgalikda, Davlat auditi Oliy maktabi bitiruvchilari uchun buxgalteriya hisobi yoki audit bo'yicha xalqaro sertifikatga ega bo'lgan talabalarni Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlaridan ozod etish amaliyotini joriy etish, shuningdek, "Davlat auditi" ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi xalqaro buxgalterlik yoki audit sertifikatiga ega bo'lsa, unga imtihonsiz milliy ichki audit malaka sertifikatini taqdim etish amaliyotini yo'lga qo'yish belgilangan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Davlat auditi tizimini modernizatsiya qilish va bu sohada istiqbolli kadrlar tayyorlash bugungi kunda global miqyosda ham, O'zbekistonda ham eng dolzarb masalalardan biridir. Davlat auditi endilikda nafaqat "moliyaviy intizomni tekshirish", balki "davlat mablag'laridan foydalanish samaradorligini baholash" vositasiga aylanmoqda. Bu borada, xorijiy amaliyotda (INTOSAI, GAO) asosiy urg'u

raqamlashtirish, strategik prognozlash va natijadorlikka qaratilgan. Xususan, xorijlik iqtisodchi olimlar Kristofer Pollitt va Gert Bukartlarning fikrlariga ko‘ra, “davlat auditorlarini tayyorlashda «Yangi davlat boshqaruvi» konsepsiyasi doirasida kadrlarning nafaqat hisobchi, balki menejerlik va tahlilchilik qobiliyatiga ega bo‘lishini ustuvor yo‘nalish” [5] deb hisoblashadi.

Shuningdek, AQSHning sobiq bosh nazoratchisi Devid M. Uolkerning fikricha, kelajak auditori “XXI asrning murakkab muammolarini (demografiya, kiberxavfsizlik, iqlim o‘zgarishi) davlat budjetiga ta‘sirini baholay oladigan” [6] mutaxassis bo‘lishi kerak. Bu borada Xalqaro oliy audit organlari tashkilotining (INTOSAI) strategik hujjatlarida kadrlar tayyorlashning ustuvor yo‘nalishi sifatida ma‘lumotlar tahlili (Data Analytics) va “IT-audit” [7] belgilangan.

Mazkur sohada o‘zbek iqtisodchi olimlarining fikrlariga ko‘ra, O‘zbekistonda davlat auditi (Hisob palatasi, Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi) bo‘yicha kadrlar tayyorlashda asosiy urg‘u xalqaro standartlar (ISSAI) va korrupsiyaga qarshi kurashga qaratilmoqda. Xususan, o‘zbek iqtisodchi olimlari A.V. Vahobov va Sh.A. Tashnazarovlarning fikricha, “davlat auditi uchun kadrlar tayyorlashda «Samaradorlik auditi» metodologiyasini chuqur o‘rgatish ustuvor yo‘nalishdir. Ya’ni, mablag‘ ishlatilganligini emas, balki undan ko‘zlangan maqsadga erishilganligini tahlil qilish muhim” [8].

Yuqoridagilar bilan birgalikda, iqtisodchi olim I.K. Ochilovning ta’kidlashicha, “davlat auditi kadrlarida «Masofaviy audit» va «Risk-tahlil» ko‘nikmalarini shakllantirish ustuvor hisoblanadi. Bu davlat budjetini nazorat qilishda inson omilini kamaytirib, IT-texnologiyalardan foydalanish qobiliyatini oshiradi” [9].

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolani tayyorlashda me’yoriy-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma‘lumotlari rasmiyligi, undagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahlil qilingan. Mavzuni o‘rganish davomida umumiy iqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur PF-252-son Farmonining 14-bandida Hisob palatasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda davlat auditi sohasida kadrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturini tasdiqlashi belgilangan. Fikrimizcha, mazkur chora-tadbirlar dasturining davlat auditi bo‘yicha Oliy maktabni tashkil etish bo‘yicha birinchi navbatda bajariladigan ustuvor vazifalar tarkibiga quyidagilarni kiritish joiz (1-jadval).

1-jadval

Davlat auditi Oliy maktabini tashkil etish bo‘yicha birinchi navbatda bajariladigan ustuvor vazifalar*

Nº	Vazifalar mazmuni
1	Oliy ta‘lim yo‘nalishlari klassifikatorlariga “Davlat auditi” ta‘lim yo‘nalishini qo‘shish bo‘yicha tegishli qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish.
2	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va Buxoro davlat universitetida “Davlat auditi” bakalavr ta‘lim yo‘nalishi hamda magistratura mutaxassisliklarini tashkil etish.
3	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son “O‘rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish

	tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq "Davlat auditi" ta'lim dasturini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish.
4	Davlat auditi ta'lim yo'nalishi va mutaxassisligiga qabul parametrlarini amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibga muvofiq kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida shakllantirish.
5	Davlat auditi Oliy maktabini zamonaviy o'quv auditoriyalari hamda moddiy-texnika bilan ta'minlash.
6	Davlat auditi ta'lim yo'nalishi va mutaxassisligining o'quv dasturlarini dunyoning nufuzli Quacquarelli Symonds (QS) va Times Higher Education (THE) tashkilotlari reytinglarida sohalar bo'yicha birinchi 300 talik ro'yxatdagi oliy ta'lim tashkilotlari tajribasi asosida ishlab chiqish va ularni Hisob palatasi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlash.
7	"Davlat auditi" oliy ta'lim yo'nalishi va mutaxassisligi tegishli bosqichi bitiruvchisining bilim, ko'nikma va kompetensiyalariga qo'yiladigan malaka talablarini ishlab chiqish.
8	Ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv rejaları va o'quv dasturlarini o'zlashtirishi uchun belgilangan o'qitishning me'yoriy muddatlarini belgilash.
9	Ta'lim yo'nalishining o'quv rejalarida belgilangan fanlar majmualari, ya'ni "majburiy fanlar" bloki va "tanlov fanlari" blokini shakllantirish.
10	"Davlat auditi" oliy ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o'rganishning izchilligi, soatlar va kreditlardagi hajmini ta'lim davrining to'liq muddati uchun o'quv rejasini ishlab chiqish.
11	Ta'lim yo'nalishining o'quv dasturlarini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan akademik soatlar hajmi yoki o'quv yuklamalarini aniqlashtirish.
12	Ta'lim jarayonida "Davlat auditi" oliy ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'zlashtirilishi zarur bo'lgan tegishli ilmiy, ishlab chiqarish, iqtisodiy va ijtimoiy sohalaridan saralab olingan bilim va ko'nikmalar tizimi yoki o'quv fanlarini belgilab olish.
13	"Davlat auditi" oliy ta'lim yo'nalishining mazmunini belgilovchi o'quv fanlarining asosiy mavzulari, mazmuni, o'zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari yoki o'quv dasturlarini ishlab chiqish.
14	Ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quv jarayonining nazariy bilimlarini amaliy mustahkamlash, amaliy ko'nikma hosil qilish, o'quv rejaları va dasturlarining ma'lum (yakuniy) qismidagi mavzu bo'yicha materiallar to'plash uchun o'tkaziladigan amaliyot davridagi o'quv vazifalarini aniqlashtirish.
15	Malaka talablariga muvofiq davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi yoki magistrlik dissertatsiyasi himoyasi bo'yicha o'quv reja va o'quv dasturlarini yaratish orqali attestatsiya jarayonlarini belgilab olish.
16	Hisob palatasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmatlarida ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish, iqtidorli talabalarni real audit jarayoniga jalb etish hamda mentor dasturini yo'lga qo'yish.
17	Davlat auditi Oliy maktabiga yuqori salohiyatga ega xorijiy professor-o'qituvchilar hamda yuqori malakali amaliyotchi mutaxassislarni jalb qilish.
18	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va Xitoyning Nankin Audit universiteti o'rtasida davlat auditi bo'yicha ilmiy va akademik hamkorlikni yo'lga qo'yish.
19	Toshkent davlat iqtisodiyot universitetiga ajratilgan davlat budjeti va budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan Davlat auditi Oliy maktabida "Davlat auditini tashkil etish uslubiyotini shakllantirish" mavzusida ilmiy konferensiyalarni tashkil etish.
20	Davlat auditi Oliy maktabiga biriktirilgan kafedraning kadrlar buyurtmachisi bo'lgan tashkilotlarda filiallarini tashkil etish hamda samarali faoliyatini yo'lga qo'yish.

*Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar hamda rasmiy internet manbalari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Yuqoridagi ustuvor vazifalar Oliy maktab faoliyatini o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot,

moddiy-texnik va ma'naviy-ma'rifiy jihatdan samarali tashkil etishning qonuniy hamda

zaruriy sharti hisoblanadi. Yuqoridagilar bilan birgalikda, “Davlat auditi” ta’lim dasturi bo’yicha ta’lim sifatini ta’minlash hamda ta’lim

yo’nalishida dars jarayonlarini tashkil etishda quyidagilarni bajarish samarali deb hisoblaymiz (1-rasm).

**“Davlat auditi”
ta’lim yo’nalishida
dars jarayonlarini
samarali tashkil
etish yo’nalishlari**

Darslar sifatini ta’minlash maqsadida 1 pedagog xodim o’quv yuklamasiga 3 tadan ko’p bo’lmagan fan kiritiladi, kafedrada har bir fan muayyan pedagog xodimlarga birlashtiriladi.

Ma’ruza mashg’uloti boshlanishida 5 daqiqa sohaga oid yangiliklar hamda islohotlar yuzasidan ma’lumot berib boriladi.

Darslar vazirlik, idora va tashkilotlar saytlaridan, ochiq axborot portallari ma’lumotlaridan foydalangan holda tashkil etiladi.

1 fan faqat 1 kafedra tomonidan o’tilishi tizimi joriy etiladi.

Ma’ruza mashg’ulotlarida fan mavzusiga doir 5–10 minutlik videoroliklar namoyish etiladi.

Ma’ruza mashg’ulotlariga yetuk amaliyotchi mutaxassislar master-klasslar o’tishi uchun jalb etiladi (ikki oyda kamida 1 marta).

Ma’ruza mashg’ulotlariga yetakchi xorijiy OTMLar professorlari, chet elda faoliyat yuritayotgan vatandoshlar keng jalb etiladi.

Amaliy mashg’ulotlarda muammoli vaziyat, keys stadi, “esse” yozish, amaliy masalalar yechish kabi noan’anaviy shakllardan keng foydalaniladi.

Mutaxassislik fanlari amaliy mashg’ulotlari «5+1» shakli bo’yicha kafedra filiallarida yoki amaliyot obyektlarida tashkil etiladi.

Ma’ruza va amaliy mashg’ulot o’tadigan pedagog xodimlar o’rtasida integratsiya ta’minlanadi, ma’ruza va amaliy mashg’ulotlar uzviyligi ta’minlanadi.

1-rasm. “Davlat auditi” ta’lim yo’nalishida dars jarayonlarini samarali tashkil etish yo’nalishlari¹

Bizningcha, oliy ta’lim tashkilotlarida “Davlat auditi” oliy ta’lim yo’nalishi bo’yicha malakali va sifatli kadrlar tayyorlash uchun ta’lim shakllarini faqat kunduzgi ta’lim shaklida tashkil etish, ma’ruza darslarini universitetning buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, audit, budget hisobi va nazorati hamda moliya sohasi bo’yicha yetakchi ilmiy daraja hamda unvonga ega bo’lgan professor-o’qituvchilari olib borishlari, amaliyot darslarini esa Hisob palatasi, Iqtisodiyot va

moliya vazirligi hamda davlat tashkilotlarining yetakchi amaliyotchi mutaxassislari tomonidan olib borilishini yo’lga qo’yish maqsadga muvofiq sanaladi, chunki bu amaliyot orqali ta’lim–fan–ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash imkoniyati hosil bo’ladi.

Fikrimizcha, “Davlat auditi” ta’lim yo’nalishining o’quv rejasida kurslar kesimida quyidagi fanlar kiritilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz (2-jadval).

¹Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar hamda rasmiy internet manbalari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2-jadval

"Davlat auditi" ta'lim yo'nalishi bo'yicha kurslar kesimida o'qitiladigan fanlar ro'yxati*

I bosqich (majburiy fanlar)	II bosqich (majburiy fanlar)	III bosqich (majburiy fanlar)	IV bosqich (majburiy fanlar)
<i>O'zbekistonning eng yangi tarixi</i>	<i>Auditga kirish</i>	<i>Moliyaviy texnologiyalar</i>	<i>Moliya sektorlarida buxgalteriya hisobi</i>
<i>Dinshunoslik</i>	<i>Statistika</i>	<i>G'aznachilik</i>	<i>Samaradorlik auditi</i>
<i>Akademik yozuv</i>	<i>Buxgalteriya hisobiga kirish</i>	<i>Davlat moliyasi</i>	<i>Moliyaviy audit</i>
<i>O'zbek (rus) tili</i>	<i>Iqtisodiy tahlil</i>	<i>Davlat sektori buxgalteriya hisobi</i>	<i>Muvofiqlik auditi</i>
<i>Xorijiy til</i>	<i>Soliqlar va soliqla tortish</i>	<i>Moliyaviy hisobot</i>	<i>Iqtisodiy xavfsizlik</i>
<i>Falsafa</i>	<i>Biznes huquqi</i>	<i>Audit</i>	<i>Moliyaviy tahlil</i>
<i>Iqtisodiyotda AKT va tizimlar</i>	<i>Sun'iy intellekt asoslari</i>	<i>Moliyaviy risklar</i>	<i>Davlat sektorida ichki audit</i>
<i>Jismoniy madaniyat va sport</i>	<i>Kiberxavfsizlik asoslari</i>	<i>Davlat auditi</i>	<i>Xalqaro moliya institutlari</i>
<i>Iqtisodiyot nazariyasi</i>	<i>Ehtimollik va statistika</i>	<i>Xalqaro moliya</i>	<i>Moliyaviy tahlilda raqamli texnologiyalar</i>
<i>Amaliy matematika</i>	<i>Moliya asoslari</i>	<i>Moliyaviy hisobot auditi</i>	<i>Dasturiy vositalar xavfsizligi</i>

*Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar hamda rasmiy internet manbalari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Yuqorida keltirilgan 2-jadvalda berilgan fanlar asosida "Davlat auditi" ta'lim yo'nalishida ta'lim jarayonlarini tashkil etish Hisob palatasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi kabi asosiy kadrlar buyurtmachilarini yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassislar bilan ta'minlashning muhim ilmiy asoslaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Bizningcha, ta'lim jarayonida mazkur jadvalda keltirilgan fanlarni modulli o'qitish tizimi asosida tashkil etish talabalarning bilimlarni chuqur, tizimli va amaliy ko'nikmalar bilan uyg'un holda o'zlashtirishini ta'minlaydi. Modulli yondashuv ta'lim jarayonini bosqichma-bosqich, mantiqiy ketma-ketlikda tashkil etish imkonini berib, talabalarda nafaqat nazariy bilim, balki mustaqil tahlil qilish, muammoli vaziyatlarni hal etish va qaror qabul qilish kompetensiyalarini ham shakllantiradi.

Shuningdek, yangi tashkil etilayotgan ta'lim yo'nalishida o'quv jarayonini iqtisodiyot universitetlarining bakalavriat ta'lim

yo'nalishlarida qo'llanilayotgan ilg'or o'quv rejaları asosida shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu esa ta'lim sifatini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish, o'quv dasturlarining raqobatbardoshligini oshirish hamda bitiruvchilarning mehnat bozorida talabgirlikini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bunda har bir fan uchun bir modul davri mobaynida ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar uchun jami 60 soat hamda mustaqil ta'lim uchun 90 soat ajratilishi yetarli va samarali hisoblanadi. Ushbu taqsimot talabalarning auditoriya mashg'ulotlari orqali nazariy bilimlarni o'zlashtirishi va mustaqil ta'lim orqali esa ularni chuqurlashtirishi hamda amaliy tahliliy ko'nikmalarini mustahkamlashiga imkon yaratadi.

Shu nuqtai nazardan, bizning fikrimizcha, "Davlat auditi" ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quv-uslubiy ta'minotni quyidagi asosiy yo'nalishlarda shakllantirish maqsadga muvofiqdir (2-rasm).



“Davlat auditi” ta’lim yo’nalishida o’quv-uslubiy ta’minotni takomillashtirish yo’nalishlari



Davlat auditi ta’lim yo’nalishida o’qitiladigan fanlardan darslik, o’quv qo’llanma va uslubiy qo’llanmalarining takomillashtirilgan yangi avlodi yaratiladi.



Fan bo’yicha amaliy mashg’ulotlarni tashkil etish bo’yicha o’quv-uslubiy qo’llanma uch qismdan iborat bo’ladi: o’qituvchi tomonidan yozilgan va dars jarayonida ko’rib chiqilgan hamda tasdiqlangan materiallar, talabalar tomonidan mustaqil bajariladigan vazifalar.



Fanlardan amaliyotni real aks ettiruvchi masalalar to’plamlari, muammoli vaziyatlar hamda keys stadiyalar to’plamlari yangilanib boriladi.



Ayrim mutaxassislik fanlaridan o’quv adabiyotlarining mobil ilovalari yaratiladi.



Ta’lim yo’nalishida o’qitiladigan fanlarning har biridan kamida 200 tadan test savollari tuziladi.



Joriy, oraliq hamda yakuniy nazoratlarni tashkil etish tartiblari tubdan yangilanadi (og’zaki, yozma, test va boshqa shakllar keng joriy etiladi. Testlar 3 yil muddatda tuzilib, amaliy masalalar bilan to’ldiriladi).

2-rasm. “Davlat auditi” ta’lim yo’nalishining o’quv-uslubiy ta’minotini shakllantirish yo’nalishlari²

Yuqoridagi rasmda “Davlat auditi” ta’lim yo’nalishida o’quv-uslubiy ta’minot sifatini oshirishning ustuvor yo’nalishlari aks ettirilgan bo’lib, mazkur vazifalarning amalda samarali ta’minlanishi ushbu ta’lim yo’nalishini o’quv-uslubiy jihatdan izchil takomillashtirish hamda uning raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlarini yaratadi. Bunda o’quv jarayonining zamonaviy talablarga mos ravishda tashkil etilishi, o’quv materiallarining yangilanib borishi hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliyot shuni ko’rsatadiki, davlat auditi sohasida tayyorlanayotgan kadrlarning sifati va ularning kasbiy faoliyatdagi samaradorligi bevosita ushbu ta’lim yo’nalishini amalga

oshirayotgan pedagog xodimlar salohiyatiga, ularning ilmiy-uslubiy tayyorgarligi hamda amaliy tajribasiga to’g’ridan-to’g’ri proporsional ravishda bog’liqdir.

Bu esa mazkur oliy ta’lim muassasasi pedagog xodimlari va ilmiy salohiyatga ega kadrlarining malakasini oshirish, ularni zamonaviy audit amaliyoti, xalqaro standartlar va raqamli texnologiyalar bilan doimiy tanishtirib borish yo’nalishlarini aniq belgilashni talab etadi. Shu asosda o’quv-uslubiy ta’minotni rivojlantirish tizimli va uzluksiz jarayon sifatida qaralib, uning natijasida yuqori malakali, zamonaviy bilim va ko’nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlashga erishiladi (3-rasm).

²Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar hamda rasmiy internet manbalari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

**Davlat auditi oliy maktabi pedagog xodimlari va talabalarining salohiyatini oshirish yo'nalishlari**

Ilmiy salohiyatga ustuvorlik qaratiladi (oliy maktab pedagog xodimlarining o'rtacha salohiyati 70 foizga yetishi ta'minlanadi)

Har o'quv yili davomida kamida 35 foiz pedagog xodimlar malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslaridan o'tishi amaliy jihatdan yo'lga qo'yiladi

Barcha pedagog-xodimlar bosqichma-bosqich amaliyot obyektlarida qisqa muddatli stajirovka o'tash uchun birlashtiriladi

Buxgalteriya hisobi va audit fanlaridan dars beruvchi pedagog xodimlar ACCA sertifikatiga ega bo'lishlari talab etiladi

Oliy maktab pedagog xodimlari reja asosida xorijiy OTMlarga malaka oshirishga yuboriladi

Kafedralarda pedagog xodimlar salohiyatini oshirish maqsadida muntazam ravishda ilmiy-amaliy seminarlar, tajribali amaliyotchi mutaxassislar, korxonalar va tashkilotlar rahbarlarining master-klasslari tashkil etiladi.

Talabalar uchun professor-o'qituvchilar tomonidan QR-code orqali fan bo'yicha o'quv adabiyotlaridan foydalanish imkoniyati yaratiladi

Talabalarga davlatni raqamlashtirish orqali Face ID va QR-code orqali elektron davlat xizmatlaridan foydalanish tizimi yaratiladi

Pedagog xodimlar salohiyatini oshirish maqsadida muntazam ravishda ilmiy-amaliy seminarlar, tajribali amaliyotchi mutaxassislar, korxonalar va tashkilotlar rahbarlarining master-klasslari tashkil etiladi

Oliy maktab faoliyat natijalari bo'yicha barcha hisobotlar elektron shaklda yuritiladi.

3-rasm. "Davlat auditi" oliy maktabi pedagog xodimlari va kadrlarining salohiyatini oshirish yo'nalishlari³

Yuqorida rasmda keltirilgan talab, maqsad va vazifalarni amalga oshirish orqali nafaqat bilimli, malakali va salohiyatli kadrlarni tayyorlashga erishish, balki ularni Davlat auditi oliy maktabining jamiyatdagi o'rni, nufuzi va ahamiyatini ta'minlashga erishiladi. Xulosa qilib aytganda, yuqoridagilarni amalga oshirilishi davlat moliyasini boshqarishda nazoratdan natijaga yo'naltirilgan, ochiq va intellektual tizimni barpo etishga qaratilgan kompleks islohotlar dasturini amalga oshirish imkoniyatlarini beradi.

Xulosa va takliflar.

O'zbekistonda davlat auditi sohasida sifatli mutaxassis kadrlar tayyorlash uchun

quyidagilarni tizimli amalga oshirish zarur:

Ta'lim tizimini xalqaro standartlar asosida modernizatsiya qilish. Buning uchun "Davlat auditi" fanining o'quv dasturlarini Xalqaro audit standartlari (AXS) va Davlat oliy audit organlarining xalqaro standartlari (ISSAI) talablariga muvofiqlashtirish, samaradorlik auditiga alohida urg'u berish, raqamli audit va ma'lumotlar tahlilini joriy etish hamda etika va korrupsiyaga qarshi kurash kurslarini kuchaytirish maqsadga muvofiq.

O'quv jarayoniga amaliyotni keng jalb qilish. Bunda maktab-korxonalar hamkorligini kengaytirish, ustoz-shogird an'anasini tiklash, real keys-stadilar asosida o'qitish tizimini yanada takomillashtirish maqsadga

³Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar hamda rasmiy internet manbalari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

muvofiqdir.

Zamonaviy o'quv-metodik bazani shakllantirish. Ushbu maqsadga erishish uchun milliy darslik va qo'llanmalar yaratish, elektron o'quv resurslari va onlayn kurslarni amaliyotga joriy etish, laboratoriya va trening markazlarini tashkil etish zarurdir.

Kadrlarning malakasini uzluksiz oshirish tizimini takomillashtirish. Bunda malaka oshirish markazlarining rolini kuchaytirish, xalqaro tajriba almashinuvini kengaytirish, sertifikatlash tizimini joriy etish hamda

motivatsiya va kadrlarni rag'batlantirish, ish sharoitini yaxshilash, munosib maosh va ijtimoiy himoya, karyera o'sish imkoniyatlarini yaratish maqsadga muvofiq.

Davlat auditi sohasida sifatli kadrlar tayyorlash uchun ta'lim, amaliyot, ilm-fan va kadrlarni rag'batlantirish mexanizmlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlash zarurdir. Bu esa davlat moliyaviy nazoratini kuchaytirishga, budjet mablag'laridan samarali foydalanishga va korrupsiyaga qarshi kurashishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-677-son Qonuni - <https://lex.uz/docs/5307886>
2. O. Barakayev – "Yangi xizmat va tushuncha: forenzik auditning nazariy–metodologik masalalari" - <https://www.imv.uz/central-apparat/buxgalteriya-hisobi-va-audit-uslubiyoti-departamen>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 10-iyundagi 326-son "Fuqarolar ishtirokidagi audit o'tkaziladigan obyektini aniqlash va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyati samaradorligini jamoatchilik tomonidan baholab borish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori - <https://www.lex.uz/uz/docs/6059068>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-avgustdagi PF-6300-son «Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni - <https://www.lex.uz/uz/docs/5607471>
5. Pollitt, C., & Bouckaert, G. (2017). "Public Management Reform: A Comparative Analysis". Oxford University Pres.
6. Walker, D. M. (2001). "The Future of Government Accountability". Government Accountability Office (GAO).
7. INTOSAIning (International Organization of Supreme Audit Institutions) 2023–2028-yillarga mo'ljallangan asosiy rivojlanish yo'nalishlari - <https://www.intosai.org/fileadmin/downloads/documents>
8. Vaxabov A.V., Malik-Asratov Sh.A. "Davlat byudjeti ijrosi ustidan moliyaviy nazorat". Darslik. – T.: Iqtisod-Moliya, 2018, Tashnazarov Sh.A. "Audit: Xalqaro standartlar asosida nazariya va amaliyot". Darslik. – T.: 2021.
9. Ochilov I.K. "Davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish yo'nalishlari". Ilmiy maqola. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" jurnali, 2020-yil.